

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

35 706

108,3 % 

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

33 552

108,1 % 

Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yilda)


4 270

69,3 % 

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2022-y. ■ 2021-y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- noyabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- noyabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,1** foizga oshdi





■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik,
chovachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko'rsatish

O'rmon xo'jaligi

Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 4,2 foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 5 064 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida -3,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,4%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash -15,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 95,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 20,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,0** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




5,0
foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




6,3
foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

9




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,3** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar





Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **48,6** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

789



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

14



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



411
yashash bo'yicha
xizmatlar



2 133
Oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 544 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 3,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 11,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,2 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 3 775 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196 taga yoki 14,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 455 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 148 taga yoki 4,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 416 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 466 taga yoki 52,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 396 tani tashkil etib, ulardan 389 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 75 taga yoki 23,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida viloyatimizda 49 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami | 143 | 273 | 296 | 314 | 389 |
| shu jumladan: | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 6 | 20 | 25 | 28 | 33 |
| Sanoat | 80 | 115 | 124 | 127 | 144 |
| Qurilish | 7 | 29 | 29 | 30 | 31 |
| Savdo | 21 | 59 | 64 | 72 | 107 |
| Tashish va saqlash | 1 | 6 | 5 | 5 | 12 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 12 | 20 | 22 | 22 | 27 |
| Axborot va aloqa | - | 1 | 1 | 1 | 5 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2 | 4 | 6 | 7 | 7 |
| Boshqa turlar | 14 | 19 | 20 | 22 | 23 |

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


15

| | Jami | <i>shundan:</i> | |
|-------------------------|------------|-----------------|-----------------|
| | | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| Viloyat bo'yicha | 389 | 210 | 179 |
| Buxoro shahar | 210 | 97 | 113 |
| Kogon shahar | 16 | 13 | 3 |
| tumanlar: | | | |
| Olot | 8 | 3 | 5 |
| Buxoro | 29 | 20 | 9 |
| Vobkent | 5 | 3 | 2 |
| G'ijduvon | 13 | 9 | 4 |
| Kogon | 29 | 20 | 9 |
| Qorako'l | 10 | 7 | 3 |
| Qorovulbozor | 11 | 5 | 6 |
| Peshku | 20 | 7 | 13 |
| Romitan | 16 | 10 | 6 |
| Jondor | 12 | 9 | 3 |
| Shofirkon | 10 | 7 | 3 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 210 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 54,0 %), Kogon tumani 29 ta (7,5 %), Peshku tumani 20 tani (5,1 %), Kogon shahar 16 ta (4,1 %), Buxoro tumani 29 ta (7,5 %), hamda Jondor tumanlarida 12 tani (3,1 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

17



2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar jami 35 706 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (27,7 %), G'ijduvon (10,8 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,9 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (6,0 %), Kogon (5,6 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,4 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar- noyabr oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar jami 4 270 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (24,1 %), G'ijduvon (10,5 %), Buxoro (8,3 %), Romitan (8,6 %), Peshku (4,6 %), Kogon (8,6 %), Jondor (8,4 %), Vobkent (5,9 %), Shofirkon (5,9 %), Qorako'l (5,5 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumanlari va Kogon shahar (3,7 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar jami 29 954 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,1 %), G'ijduvon (10,7 %), Romitan (8,8 %), Buxoro (7,7 %), Jondor (7,1 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,8 %), Kogon (5,8 %), Vobkent (5,4 %), Qorako'l (5,0 %), Kogon shahar (4,0 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The menu includes links for "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". A search bar at the top right contains the text "Qidirish" and "Qidirish". Below the menu, there is a sidebar titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various statistical categories like "Elon qilish taqimisi", "Metama'lumotlar", etc. A central search window is open, showing a dropdown menu for "Statistik klassifikatsiyalar" with options like "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", etc. The search bar in this window contains the text "Kodini kiriting" (Enter code). To the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (65) 223-83-20